

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti tomonidan o'rta va umumta'lim maktablari, fizika fani o'qituvchilariga fizika yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida institutning fizika fani o'qituvchisi K.Pardayeva tomonidan Denov tumanidagi 95-umumiy o'rta ta'lim maktabida "Tovush to'lqinlarining ahamiyati" mavzusidagi ochiq mahorat darsi

BAYONNOMASI

2024 yil 24 sentyabr

Denov tumani

Qatnashdilar:

"Umumiy fizika va qurilish muhandisligi" kafedrası o'qituvchilari, Denov tumanidagi 95-umumiy o'rta ta'lim maktabi fizika fani o'qituvchilari va o'quvchilari.

KUN TARTIBI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish" chora-tadbirlari to'g'risida

2. Maktabning laboratoriya xonasiga zarur bo'lgan jihozlar hamda o'quv ko'rgazmalar, test bankini yaratish, fizikaga oid metodik qo'llanmalarga bo'lgan talablarini o'rganish

3. O'quvchilar bilan suhbatlashish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 19.03.2021 yildagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-son qarorining mazmun mohiyati, amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida maktab direktori U.Ro'ziyev so'zga chiqib, kirish so'zi bilan ochib berdi. "Prezidentimiz tomonidan fizika fanlari rivojiga berilayotgan e'tibor, chiqarilayotgan qaror, farmonlarning nechog'lik samarali bo'layotganligi haqida to'xtalib o'tdi. Ushbu maktab fizika fanidan o'quv xonalari laboratoriya jihozlari, o'quv ko'rgazmalari bilan qisman ta'minlangan. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlar fakulteti professor o'qituvchilari bilan hamkorlikda o'quvchilarni darslarda yaxshiroq o'zlashtirishi uchun yangi metodlar bilan almashishlar, universitetning o'qituvchilari bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, fakultet tasarrufiga olingan viloyatdagi tayanch maktablar o'rtasida fan olimpiadalarini yo'lga qo'yish, yanada kuchaytirish, fakultet tasarrufiga olingan viloyatdagi tayanch maktablar o'rtasida fan olimpiadalarini yo'lga qo'yish, har oy o'quvchilar bilimini baholash maqsadida test bankini yaratish, xomiylik tizimini yo'lga qo'yish, amaliyot uchun

ekskursiyalar tashkil etish va laboratoriya xonasini metodik qo'llanmalar bilan ta'minlashni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'lishini o'z fikrida bayon qildi.

So'ngra institutning Aniq va tabiiy fanlar fakulteti o'qituvchisi K.Pardayeva tomonidan "Tovush to'lqinlarining ahamiyati" mavzusida "Ochiq mahorat darsi" bo'lib o'tdi. O'quvchilarga mavzu yuzasidan tushunchalar berildi. Darsda maktabning fizika fani o'qituvchilari va o'quvchilari o'zini qiziktirgan savollariga javob oldi. Ochiq mahorat darsi davomida qatnashuvchilarga "Akustika elementlari" nomli videorolik taqdimoti namoyish etildi. Taqdimotdan so'ng o'quvchilar bilan mavzu yuzasidan qisqa savol-javoblar bo'lib o'di. Darsda turli xil zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanildi. Ochiq mahorat darsi juda qiziqarli tarzda tashkil etildi.

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish" chora tadbirlari mazmun mohiyati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Maktabda test bankini yaratish, fizikaga oid metodik qo'llanmalarga bo'lgan talablarini ishchi guruh tavsiyasi sifatida qabul qilinsin.

3. O'qituvchilar va o'quvchilarni ilmiy savodxonligini oshirishga qaratilgan "Mahorat darslari" o'quv yili davomida amalga oshirilsin.

Denov tumanidagi 95-umumiy o'rta

ta'lim maktabi direktori:



U.Ro'ziyev